



SUPPORTING LOCAL PRODUCERS AND GIVING THEM PRIVILEGES PROVIDED

Xolmurotov Rustam¹

¹ Tashkent State Law University, 1st year Master's student

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4898567>

ARTICLE INFO

Received: 20th May 2021

Accepted: 25th May 2021

Online: 30th May 2021

KEY WORDS

Industry, Local
Manufacturer, Support,
Pandemic, Investment,
Economy

ABSTRACT

This article reflects the support for local producers, as well as the benefits provided to local producers in our country over the past years and the innovations in the field, as well as bills aimed at developing this sector.

MAHALLIY ISHLAB CHIQARUVCHILARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA ULARGA BERILAYOTGAN IMTIYOZLAR

Xolmurotov Rustam¹

¹ Toshkent Davlat Yuridik Universiteti 1-kurs Magistranti

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20-May 2021

Ma’qullandi: 25-May 2021

Chop etildi: 30-May 2021

KALIT SO‘ZLAR

Sanoat, Mahalliy ishlab chiqaruvchi, Qo‘llab-quvvatlash, Pandemiya, Investitsiya, Iqtisodiyot.

ANNOTATSIYA

Maskur maqolada mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash hamda o‘tgan yillar davomida mamlakatimizda mahalliy ishlab chiqaruvchilarga berilgan imtiyozlar va sohada qilingan yangiliklar va shu sohasini rivojlantirishga qaratilgan qonun loyhalari o‘z aksini topgan.

Yurtimizda faol investitsiya va tashqi savdo faoliyatini amalga oshirishda iqtisodiyot tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha juda keng ko‘lamli va samarali ishlar amalga oshirilmoqda. 2017-2021 yillarga qadar iqtisodiyotda o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 3,1 barobarga, shu jumladan, markazlashtirilgan investitsiyalar hisobiga qarib 3 barobarga ortgan. Yalpi ichki mahsulot tarkibidagi investitsiyalar ulushi

2016-yildagi 21 foizdan 2021-yil yakuniga ko‘ra 42 foizdan yuqoriga o‘tdi. Ushbu davrda tashqi savdo aylanmasi hajmi qarib 2 barobarga oshdi. Investitsiyalar va tashqi savdodagi yuqori faollik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarining 1,24 barobarga, qurilishning 1,44 barobarga o‘sishiga rag‘batlantiruvchi ta’sir ko‘rsatdi, ularning yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushi esa 24,1 foizdan 33,2 foizgacha o‘sganini ko‘rib



turibmiz. Shu bilan birga, koronavirus global pandemiyasi kooperatsiya aloqalarining buzilishi, mahsulotga talabning va sotuv bozorlarining qisqarishi oqibatida iqtisodiyotning qator tarmoq va sohalaridagi korxonalarining ishlab chiqarish faolligiga cheklovchi ta'sir o'tkazishda davom etmoqda.

Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni mahalliy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlari va nomenklaturasini kengaytirish, tarmoqlararo kooperatsiyani chuqurlashtirish va qo'shilgan qiymat zanjirini rivojlantirishda qo'shimcha qo'llab-quvvatlash, shuningdek, raqobat muhitini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish va davlat xaridlari tizimida mahalliy ishlab chiqaruvchilar ishtirokini kengaytirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining quyidagi taklifiga rozilik berildi va quyda 2020-yil 1-noyabrdan boshlab ustav fondida (kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar, shuningdek, ustav fondining (kapitalining) 50 foizi va undan ortig'i 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushiga ega yuridik shaxsga tegishli bo'lgan yuridik shaxslar uchun shunday tartib o'rnatiladiki, unga ko'ra umumiy qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 50 ming baravaridan yuqori bo'lgan import tovarlari xaridlarining maqsadga muvofiqligi har chorakda ro'yxati tasdiqlangan holda kuzatuv kengashlari ya'ni ta'sisчилarning umumiy yig'ilishi tomonidan majburiy tartibda ko'rib chiqiladi va xorijda ishlab chiqarilgan alohida tovarlar, shuningdek, xorijiy shaxslar tomonidan bajariladigan ishlarning va xizmatlarning davlat xaridlaridagi ishtirokini vaqtinchalik taqiqlash va chegaralash mexanizmi kiritiladi. Davlat xaridlaridagi ishtiroki vaqtinchalik taqiqlangan va chegaralangan, xorijda ishlab chiqarilgan tovarlar, shuningdek, xorijiy shaxslar tomonidan bajariladigan ishlarning va xizmatlarning

ro'yxatiga kiritilmagan mahsulotlar bo'yicha tender va tanlov ishtirokchilari takliflarini baholashda xalqaro tajribaga muvofiq mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlarga nisbatan import tovarlarining O'zbekiston narxidan 15 foizdan ko'p bo'lmagan miqdorda preferensiya beriladi va shu asosda 2020 yilda hududiy byudjet buyurtmachilari tomonidan amalga oshiriladigan davlat xaridlari bo'yicha xarid komissiyalari tarkibiga Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish va sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish masalalari bo'yicha yordamchilari majburiy tartibda kiritiladi va yuqoridagi ishlarning barchasi amalda bajarildi va 2021-yil 1-yanvardan strategik ahamiyatga ega xo'jalik jamiyatlari va korxonalar uchun tovarlar xarid qilishning alohida tartiblari bekor qilinadigan bo'ldi hamda Vazirlar Mahkamasi 2021-yil 1-yanvarga qadar strategik ahamiyatga ega xo'jalik jamiyatlari va korxonalarda davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik talablariga va korporativ boshqaruvning zamonaviy tamoyillariga muvofiq tovarlar hamda ishlar, xizmatlar va xaridlarini o'tkazishning ichki tartiblari joriy etilishini ta'minlash mutsadi hodimlar zimasi ga yuklatildi. Yurtboshimiz tamonida bir qator vazirliklarga mahalliy ishlab chiqaruvchilar qo'llab quvvatlash masadida bir qator imtiyozlar berilishi yuklatildi hamda davlat xaridlaridagi ishtiroki vaqtinchalik taqiqlangan va chegaralangan, xorijda ishlab chiqarilgan tovarlar, shuningdek, xorijiy shaxslar tomonidan bajariladigan ishlarning va xizmatlarning ro'yxati Vazirlar Mahkamasi tomonidan quyidagi asosda shakllantirildi va tasdiqlanadi.

Bugungi pandemiya davrida iqtisodiyotga salbiy ta'sirini kamaytirish,



savdo bozorlarining qisqarishi oqibatida iqtisodiyotning qator tarmoq va sohalaridagi korxonalarining ishlab chiqarish faolligini cheklovchi omillarni qisqartirish, shuningdek, mahalliy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlari va nomenklaturasini kengaytirish, davlat xaridlari tizimida mahalliy ishlab chiqaruvchilar ishtirokini kengaytirib borish hisobiga sanoat ishlab chiqarishida qo'shilgan qiymat zanjiri yaratilishini ta'minlash maqsadida yurtimiz juda ko'plab samara ilshlar amalga oshirilmoqda hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-yanvardagi 41-son qaroriga muvofiq hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 21-avgustdagi PQ-4812-son qaroriga muvofiq xorijda ishlab chiqarilgan alohida tovarlar, shuningdek, xorijiy shaxslar tomonidan bajariladigan ishlarning ya'ni xizmatlarning davlat xaridlaridagi ishtirokini vaqtinchalik taqiqlash mexanizmini joriy etish, shuningdek, xalqaro tajribaga muvofiq mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlarga nisbatan import tovarlarning CIP (O'zbekiston) narxidan 15 foizdan ko'p bo'lmagan miqdorda preferensiya qo'llash belgilanganligi tadbirkorlarimiz uchun juda katta ko'mak vazufasini bajardi hamda davlat xaridlaridagi ishtiroki vaqtinchalik taqiqlangan va chegaralangan xorijda ishlab chiqarilgan tovarlar, shuningdek, xorijiy shaxslar tomonidan bajariladigan ishlarning ro'yxatini shakllantirish tartibi joriy qilindi va davlat xaridlaridagi ishtiroki vaqtinchalik taqiqlangan va chegaralangan xorijda ishlab chiqarilgan tovarlar, shuningdek

davlat xaridlarida mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlarga va ishlar, xizmatlarga preferensiya berish tartibi to'g'risidagi nizomi tasdiqlandi va hayotga tatbiq etildi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligiga mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashga oid quyidagi qo'shimcha vazifalar yuklatildi hamda mahalliy ishlab chiqaruvchi va davlat buyurtmachilari tomonidan ariza va murojaatlarni O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Elektron kooperatsiya portalida onlayn qabul qilish va natijalarini qayta yuborish aloqa mexanizmini nazarda tutuvchi elektron tizimni joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Moliya vazirligi, Savdo-sanoat palatasi, vazirliklar, idoralar hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan birgalikda respublikada ishlab chiqariladigan mahsulotlarni batafsil o'rganish asosida davlat xaridlaridagi ishtiroki vaqtinchalik taqiqlangan va chegaralangan xorijda ishlab chiqarilgan tovarlar, shuningdek, xorijiy shaxslar tomonidan bajariladigan ishlarning ro'yxatiga o'zgartirish kiritish bo'yicha takliflarni ishlab berildi va ishlab chiqildi hamda har chorak yakuni bilan Vazirlar Mahkamasiga kiritish qonun bilan belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi kelgusi davr uchun davlat xaridlarining reja-grafiklari va davlat xaridlarining o'tgan yildagi amaldagi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarning mahalliy ishlab chiqaruvchilarga yetkazilishini ta'minlash maqsadida ularni davlat xaridlari maxsus axborot portaliga joylashtirib borshili tasdiqlandi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash maqsadida juda ko'plab imtiyoz va preferensiya berib borildi va bugungi kunimiz iqtisodiyotimizning bir xilda ketishu uchun zarurligi yurtboshimiz takidlab va kerakli ko'rsatmalar berib borildi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xujamkulov Dilmurod Yusupalievich “Erkin iqtisodiy hudular” Iqtisodiyot 2019 yil .
2. Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar.
O’quv qo,,llanma. – T.: Moliya, 2010.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 21-avgustdagi PQ-4812-son qarori.
4. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-yanvardagi 41-son qarori .